

XX ASRNING IKKINCHI YARMI – XXI ASR BOSHLARIDA MISR: RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA ZIDDIYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yuldashev Jo'rabek Turg'unpo'latovich

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishlar va mintaqalar bo'yicha mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6621229>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida misr: rivojlanish yo'nalishlari va ziddiyatlarning o'ziga xos xususiyatlari” haqida ilmiy izlanish olib borilgan.

Kalit so'zlar: aglomeratsiya; emigrant; qora metallurgiya; intensiv xo'jalik; neft quvuri; tranzit; iqtisodiy rayon.

Misr ikki qit'ada: Afrikaning shimoli-sharqi va Osiyoning janubi-g'arbida joylashgan davlat. Janubda Sudan, g'arbda Liviya, shimoli-sharqda Isroil va Falastin bilan chegaradosh. Shimolda O'rta dengiz, sharqda Qizil dengiz suvlari Misr sohillarini yuvib turadi. Mamlakatning umumiyligi maydoni 1001450km^2 . Poytaxti – Qohira shahri. Misrning strategik jihatdan qulay joylashuvi butun Sinay yarimorolini nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari dunyoning eng muhim suv yo'llaridan biri bo'lgan Suvaysh kanali ham Misr nazorati ostida.

Davlat tuzumi-prezidentlik respublikasi. Davlat boshlig'i – prezident 6 yillik muddatga umumxalq saylovida saylanadi. Amaldagi prezidenti-Muhammad Husni Muborak (1981-yil 14- oktabrdan). Ijroiya hokimiyat prezident va Bosh ministr boshchiligidagi hukumatga tegishli. Oliy qonun chiqaruvchi organ - Xalq Majlisi (454 deputatdan iborat, 444 tasi saylanadi 10 ta deputat prezident tomonidan tayinlanadi) va Maslahat Kengashidan (264 a'zo 88 ta deputat prezident tomonidan tayinlanadi) tashkil topgan. Amaldagi konstitutsiyasi 1971-yil 11-sentabrda qabul qilingan. Sud tizimiga Oliy Konstitutsiyaviy sud boshchilik qiladi. Milliy bayrami 23-iyul (1952-yil), inqilob kuni. Mustaqillik kuni - 28-fevral (1922-yil). Mamlakat 26 ta muhofazalarga bo'lingan. Ular o'z navbatida markazlarga, markazlar esa nohiyalarga bo'lingan. Asosiy siyosiy partiyalari: Milliy Demokratik Partiya, Mehnat Sotsialistik Partiyasi, Milliy Taraqqiyot Partiyasi, Al-Umma.

Misr bir millatli mamalakat. Arablar aholining 98%idan ortig'ini tashkil etadi. Qolgan qismini greklar, nubiylar, armanlar, yevropaliklar (italian va fransuzlar) tashkil etadi. Davlat dini - islom sunniy mashabida. Unga 90%dan ortiq aholi e'tiqod qiladi. Mamlakat hayotida islom dini katta ahamiyatga ega. Mamlakat milliy daromadining yarmidan ortig'i, aholisini 10%ga yaqin qismiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga Misr boshqa arab mamlakatlaridan arablarni musulmon bo'limgan

qismini ko'pligi bilan ajralib turadi. 10%ga yaqin aholisi arab- xristianlar tashkil etadi.

Davlat tili arab tili, oliy tabaqaliklar ingliz, fransuz tillarida so'zlashishadi.

Mamlakat aholisi yiliga ko'p bolalilik an'analarini saqlagan holda taxminan 1,2mln.kishiga ko'paymoqda. Tug'ilish har ming kishiga 23 kishi to'gri keladi. O'lim har ming kishiga 5,23 kishi to'g'ri keladi. Aholining o'rtacha yashash davomiyligi 71,29 yil (erkaklar-67,94; ayollar-73). Mamlakat oldida ish bilan ta'minlash keskin muammo bo'lib turibdi. Yosh tarkibi: 14yoshgacha bo'lganlar-33,9%; 15-64 yoshgacha bo'lganlar - 62,5%; 65 va undan kattalar - 4,2%ni tashkil etadi.

70-yillardan qishloq xo'jaligida aholini bandlik darajasi pasayib bormoqda. Hozirgi vaqtida qishloq xo'jaligida iqtisodiy faol aholining faqat $\frac{1}{3}$ qismi band. Shu bilan birga xizmat ko'rsatishda bandlik ortib bormoqda. Iqtisodiy faol aholi 21,34 mln kishi, shundan qishloq xo'jaligida-29%, sanoatda-22%, xizmat ko'rsatishda-49% aholi band.

O'rtacha zichlik ko'rsatkichi Misr uchun ahamiyatsiz, aholi juda notekis joylashgan. Nil vodiysida o'rtacha zichlik 1km^2 .da 1000 kishidan ortadi, cho'l rayonlarida esa 1km^2 da 1kishidan kam to'gri keladi.

Shahar aholisi 50%dan ortiq. Poytaxt Qohira aglomeratsiyasida Qohiraning o'zi, Shubra- al-Hayma(shimoliy yo'ldosh shahar) ,Giza(chap sohil- bo'yi qismi), Helvon(janubiy sanoat yo'ldosh shahar) va boshqalarda 11mln.dan ortiq kishi yashaydi(maksimal ko'rsatkichi 13mln kishigacha yetadi). Poytaxtda shaharliklar muammosi keskin bo'lib, bir necha o'nlab km radiusgacha yangi yo'ldosh-shaharlar tuzish orqali aholini joylash choralar ko'rilmoxda (Sadat-Siti va boshqalar). Ahamiyati bo'yicha ikkinchi shahar aglomeratsiyasi (3mln kishidan ortiq) asosiy port shahar-Aleksandriya atrofida shakllangan.

Dunyo moliya-iqtisodiy tizimida boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan Misr iqtisodida va valyuta tushumida tovar mahsulotlari chiqarish bilan bog'liq bo'limgan "ko'rinmas eksport" katta ahamiyatga ega. Gap yuqorida eslab o'tilgan ishchi kuchi "eksporti", chet el sayohlari importi, ikki okean xavzasini bog'lovchi qulay geografik o'rinda joylashuvidan foydalanish haqida ketmoqda. AQSH va boshqa g'arb mamlakatlari tomonidan sarmoyalar va turli xil yordamlar berish katta ahamiyatga ega.

Mamlakat eksportida hom neft (40%) va neft mahsulotlari (10%), paxta tolasi (10-15%) asosiy o'rinni egallaydi. Importda oziq-ovqat, mashinalar va jihozlar tashkil etadi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari eksportda - Italiya, importda - AQSH.

Misr geografik, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ko'ra 4ta rayonga bo'linadi: Quyi Misr, O'rta Misr, Yuqori Misr va Suvaysh kanali zonasasi.

Quyi Misr Nil deltasini, shuningdek murakkab hududlarni (Qohira va Aleksandriya gubernatorligi) o'z ichiga oladi. Bu rayonda Misr aholisining 70%ni yashaydi. Quyi Misr hududida Misr sanoat korxonalarining $\frac{2}{3}$ qismi va mamlakatning $\frac{4}{5}$ qismidan ko'proq qayta ishlovchi sanoat korxonalari joylashgan. Quyi Misrda davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynovchi Misrning eng yirik shaharlari Qohira va Aleksandriya joylashgan.

Quyi Misrda 90%dan ortiq hamma sholi ekin maydonlari va 75% paxta ekin maydonlari, shuningdek makkajo'xori, bug'doy, bog' va poliz ekin maydonlarining asosiy qismi joylashgan.

Qohira – Misr poytaxti. Qohira 969-yilda tashkil topgan. Geografik o'rnining qulayligi tufayli shahar qisqa vaqt ichida Misrning siyosiy boshqaruvchi, xo'jalik va madaniy markaziga aylandi. Poytaxt va shahar atrofida Misr fabrika-zavod korxonalarining yarmidan ortig'i joylashgan, ularda mamlakatning deyarli $\frac{2}{5}$ qism yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqariladi.

Qohira – arab Sharqida yirik informatsiya va madaniy markaz. Bu yerda ko'p sonli gazeta, jurnallar va kitoblar chop etiladi. Qohira radiosи ko'pgina Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlariga eshittirishlar beradi, kino sanoati mahsuloti hamma arab mamlakatlariga yuboriladi. Qohira va uning atrofida ko'plab sayyoohlarni o'ziga jalb etuvchi tarixiy yodgorliklar va muzeylar joylashgan.

Aleksandriya – Aleksandr Makedonskiy tomonidan m.a. 332-yilda asos solingan. Qohiradan keyin Misrning yirik iqtisodiy va madaniy markazi, mamlakatning siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Shahar Misrning asosiy dengiz porti, u orqali mamlakatning 67%gacha tashqi savdo yuklari o'tadi. Shahar mamlakatning $\frac{1}{5}$ qism sanoat mahsulotini ishlab chiqaradi. Poytaxt Aleksandriya bilan temiryo'l, avtomobil, havo va daryo yo'llar orqali bog'langan. Misrliklar va ko'p sonli xorij sayyoohlari uchun yozgi dam olish maskani bo'lib xizmat qiladi.

O'rta Misr – Nil vodiysining o'rta qismi va Fayum vohasini o'z ichiga oladi. Bu agrar rayon paxta, shununingdek donli va dukkakli o'simliklarga ixtisoslashgan. O'rta Misr shaharlari asosan savdo- transport va madaniy xunarmandlik markazlari. Ularning ko'pidagi paxta tozalovchi va preslovchi korxonalar joylashgan. Fabrika- zavod ishlab-chiqarishi faqat Al-Fayum va Al-Minyada rivojlangan.

Yuqori Misr – Nil vodiysining Misr- Sudan chegarasigacha bo'lgan qismini o'z ichiga oladi. Bu agrar- industrial rayon, qishloq xo'jaligida shakarqamish, paxta,

shuningdek makka jo'xori yetishtirishga ixtisoslashgan. Bu rayonda yirik shahar ba sanoat markazi- Asvon joylashgan. Asvonning yirik sanoat markaziga aylanishi Afrikada eng kuchli gidroenergiya kompleksining qurilishi bilan bog'liq. Endilikda Asvon Misrda ishlab-chiqarilgan elektr-energiyaning 70%dan ko'pini bermoqda. Bu shaharda yirik qayta ishlovchi korxonalar paydo bo'ldi, ular orasida azot o'g'itlari ishlab chiqaruvchi zavod, ferroselitsiya ishlab chiquvchi fabrika shular jumlasidandir. Qo'shni shaharlarda energiya talab etuvchi korxonalar rivojlanmoqda. Masalan, Nag-Hammadida yirik alyuminiy kombinatini keltirish mumkin.

Suvaysh kanali zonasi – Suvaysh kanali Sinay cho'lida 1859-69-yillarda tashkil qilingan va xalqaro dengiz yo'llari tizimida muhim o'rirlardan birini egallaydi. Kanalning uzunligi- 193,5km. Suvaysh kanali Shimoliy Amerika va Hind okeani portlari orasidagi masofani 30-50%ga qisqartirdi. Suvaysh kanali zo'nasi aholisi asosan uchta yirik shaharlarda to'plangan- Port-Said, Suvaysh va Ismoiliya hamda kanalga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda band. Port-Said va Suvayshda kemasozlik va kema tamirlov zavodlari, to'qimachilik hamda oziq-ovqat sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek Suvaysh Misrda neftni qayta ishlovchi markazlardan biri, mamlakatning asosiy neft olinadigan rayoniga yaqin joylashgan. Misr O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 1991-yil 26-dekabrda tan olgan. 1992-yilning yanvarida ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1992-yil dekabrda Misrga tashrifi davomida ikki mamlakatning turli sohalardagi hamkorligini kengaytirish yo'nalishlari belgilandi va ikkiyoqlama munosabatlarning shrtnomaviy-huquqiy asosi yaratildi. Toshkentdagi Misr elchixonasi 1993-yilning may oyida o'z faoliyatini boshlagan. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining 1995-yil dekabrida Misrga tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasining Misrdagi elchixonasi rasman ochildi. O'zbekiston va Misr o'rtasidagi aloqalarda madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalari birmuncha rivojlangani bilan ajralib turadi. 1994-yilning noyabridan Toshkentda Misr fan va ta'lim markazi faoliyat ko'rsatib, o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shamoqda. Oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi va ilmiy-texnikaviy almashish, sport bo'yicha va yoshlar o'rtasidagi aloqalar o'zaro manfaatli hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. O'zbekiston va Misr savdo – iqtisodiy hamkorlik doirasida hukumatlararo qo'shma komissiya yig'ilishlari muhim o'rinn tutmoqda. O'zaro hamkorlikda Misr Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi MDH davlatlari bilan texnikaviy hamkorlik qilishda Misr jamg'armasi faol ishtirok etmoqda. Hozirda O'zbekistondan Misrga ip, chorva mahsulotlari, yong'oq, mevalar, kungaboqar eksport qilinmoqda. Misrdan qilinayotgan importda dori-

darmonlar, efir moylari, kimyo mahsulotlari va chinni buyumlar tashkil etmoqda. Savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarish, irrigatsiya va energetik komplekslar qurish, Misrga traktorlar, kimyoviy o'g'itlar, sement va to'qimacilik mahsulotlarini eksport qilish, kosmetik va farmatsevtik tovarlar ishlab chiqarish, turizm, marketing, banklar o'rtasidagi munosabatlar va sug'urta sohalarida hamkorlik qilish istiqbolli va o'zaro foydali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алиев М. Г., Ишанходжаева Д. А., Хачиев Г. А. Экономика и финансы регионов мира в цифрах сравнения.–Т., 2003.
2. Вавилова Е. В. Экономическая и социальная география мира. Учебное пособие. –М., 2006.
3. Soliyev A., Muhammadaliev R.. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. –Т., 2005.
4. Soliyev A., Ahmedov E., Muhammadaliyev R. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma.–Т.: Universitet, 2003.
5. Социально – экономическая география зарубежного мира. Под ред В. В. Вольского –М.: Крон-пресс, 2003.
6. Энциклопедический справочник Страны мыра. –Смоленск: Русич, 2002.
7. Rustamaliyev, Mirjalol Hayrullo O'G'Lи HINDISTONDA INGLIZ MUSTAMLAKACHILIK TIZIMINING YEMIRILISHI, DEMOKRATIK TAMOYILLARNING QAROR TOPISHI // ORIENSS. 2022. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hindistonda-engliz-mustamlakachilik-tizimining-yemirilishi-demokratik-tamoyillarning-qaror-topishi> (дата обращения: 01.06.2022).
8. Страны и народы. Восточная и центральная Азия. –М.: Мысль 1982.